

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**UMAROVA NURINISO RAXIMOVNA**

**ABDULLA ORIPOV ASARLARIDA DAVR VA IJODKOR SHAXS  
MUAMMOLARI TALQINI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Umarova Nuriniso Raximovna**

Abdulla Oripov asarlarida davr va ijodkor shaxs muammolari talqini ..... 3

**Умарова Нуринисо Рахимовна**

Интерпретация проблем эпохи и личности творца в произведениях

Абдуллы Арипова..... 23

**Umarova Nuriniso Rakhimovna**

Interpretation of the period and creative personality issues

in the works of Abdulla Oripov ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**UMAROVA NURINISO RAXIMOVNA**

**ABDULLA ORIPOV ASARLARIDA DAVR VA IJODKOR SHAXS  
MUAMMOLARI TALQINI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Jizzax – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyal mavzual Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3767 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb sahifasida (jdu.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qosimov Usmon**  
filologiya fanlari doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Umurova Gazal Xotamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Oripova Gulnoza Murodilovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "1" 07 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi. 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (872) 226-46-56; e-mail: jspi\_info@umail.uz Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya avtoreferati bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (10 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi. 4. Tel.: (872) 226-13-57; 226-21-73 faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "1" 06 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "11" 06 da 406 raqamli reyestr bayonnomasi).



**U.A.Jumanazarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.fanlari doktori, professor

**N.N.Xadjimusayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**E.G.Sharipov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filol.fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida davr, ijodkor shaxs muammosi, ijtimoiy voqelikning she'riyatdagi talqini va qalam ahlining badiiyatdagi o'rnini kitobxoniga ma'lum qilish ehtiyoji ortib bormoqda. Ijodkorning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan biografik va ijodiy omillar: shaxs tarbiya topgan muhit, ijtimoiy davr va adabiy ta'sir kabi masalalarni talqin etish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni kunda she'riyatda jamiyat, inson munosabatlarining badiiyatdagi tasviri masalasini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida yetakchi ijodkorlar biografiyasi, ijodiy faoliyatini o'rganish, asarlarining mavzu qamrovi, takomil bosqichi, janr xususiyatlari, badiiyat masalalaridagi an'ana va yangilanish tamoyillarini ilmiy tadqiq qilishga e'tibor kuchaymoqda. Lirikada davr, shoir ruhiyati, ruhiy kechinmalari, ijodiy laboratoriyasini o'rganish, ijodkorning xalqona poetik tafakkur tarzi adabiy shaxsiyati darajasini namoyon qiladi. Ushbu holat o'z-o'zidan adabiyotshunoslik oldida turgan qator masalalar yechimi sifatida bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda o'zbek adabiyotshunosligi o'z taraqqiyotida yangi sifat bosqichiga ko'tarilib bormoqda. Davr va ijodkor shaxs munosabatlarining poetik talqini masalasini alohida ijodkorlar asarlari misolida ochib berish, shoir qiyofasi va "men"i, so'z – shoir badiiy g'oyasi kontekstini baholashda muayyan tajribalar to'plandi. Xususan, badiiy ijod maktabini yaratgan, xalqning ehtiromi va e'tirofiga sazovor bo'lgan shoir Abdulla Oripovning badiiy ijod sirlari izchil tadqiq qilinmoqda. Chunki shoirning "...yuksak badiiy, teran, falsafiy she'rlari xalqimiz ko'nglidan chuqur joy olgan"<sup>1</sup>. Shoir asarlarida davr va ijodkor shaxs muammolarini "Shoirning tug'ilishi" to'plamidagi she'rlar misolida o'rganish muhim ilmiy-amaliy zarurat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 2-dekabrda PQ-4906-son "Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to'g'risida", 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida", 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Odamlar yaxshi yashashi uchun zarur sharoitlar yaratish – barcha rahbarlarning asosiy vazifasidir.  
// Xalq so'zi, 2017-yil 28-fevral

mazkur sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy-tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida davr va shaxs muammosining poetik talqini, xususan, lirik asarlardagi davr va shaxs munosabatlarining badiiy, falsafiy, ijtimoiy-tarixiy, g'oyaviy-estetik xususiyat va kategoriyalari kabi masalalar adabiyotshunoslar N.Aseyev, V.Ognev, I.Bexer, S.Vladimirov, N.K.Gey, S.M.Bondi, Y.Parandovskiy, Y.Borev, V.Bryusov B.S.Meylax, N.M.Shanskiy<sup>2</sup> tomonidan keng o'rganilgan. O'zbek adabiyotshunosligida ham davr muammolari, ijodkor shaxsi, ijodiy laboratoriyasi, asarlari poetikasi kabi muammolarga bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlar, tadqiqot va maqolalar e'lon qilingan<sup>3</sup>.

Abdulla Oripov ijodi milliy ma'naviyatimiz takomili va rivojida o'ziga xos uslubda "ko'p va xo'p" talqin qilindi va shoirning she'riyatdagi milliy-ma'naviy,

---

<sup>2</sup>Асеев Н. Зачем и кому нужна поэзия. – Москва: Сов. писатель, 1961; Огнев В. Книга про стихи. – Москва: Сов. писатель, 1963; Бехер И. Любовь моя, поэзия. – Москва: Худ. лит., 1965; Владимиров С. Стих и образ. – Москва: Сов. писатель, 1968; Гей Н.К. Искусство слова. – Москва: Наука, 1967; Бонди С.М. Черновики Пушкина. – Москва: Просвещение, 1971; Парандовский Я. Алхимия слова. – Москва: Прогресс, 1971; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки (Опыт прочтения "Медную всадника"). – Москва: Сов. писатель, 1981; Брюсов В. Ремесло поэта. Статьи о русской поэзии. – Москва: Современник, 1981; Мейлах Б.С. "...сквозь магический кристалл..." – Ленинград: Выш.шк., 1990; Шанский Н.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Ленинград: Просвещение, 1990.

<sup>3</sup> Мамажонов С. Услуг жилолари. – Тошкент, 1972; Рахимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент, 1979; Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари. – Тошкент, 1976; Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Тошкент, 1979; Ўша муаллиф. Чўлпон. – Тошкент: Чўлпон, 1991; Ғафуров И. Лириканинг юраги. – Тошкент, 1982; Норматов У. Гўзаллик билан учрашув. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976; Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент, 1978; Шарипов Р. Стилевие особенности современной узбекской поэзии (80-е годы). Дисс. на соиск... канд.филол.н. – Ташкент, 1990; Абсамиев Х. Традиция и новаторство в узбекской советской поэзии 60-70 годов. Дисс. на соиск... канд.филол.наук. – Ташкент; Акрамов Б. Проблема поэтического образа в современной узбекской лирике (60-е–80-е годы): Автореф. дисс...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1991; Боборахимов М. Конфликт и характер в узбекской лирике 80-х годов. Дисс. на соиск... канд.филол.н. – Ташкент, 1991; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеърятисида психологик тасвир маҳорати: Филол.фан.д-ри... дисс.автореф. – Тошкент, 1999; Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 1996; Сабирдинов А. Ойбек шеърятисида сўз ва образ: Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 1993; Қосимов Я. Ўзбек шеърятисида поэтик фикрнинг янгилашиш жараёни: филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1993; Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини: Филол.фан.д-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Алиев Б. Ҳозирги замон шеърятисида психологизм муаммоси (70-80-йиллар): Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 1994; Абдукаримов Т. Зулфиянинг 70–80-йиллар ижодида лирик қаҳрамон тасвири: Филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1995; Ҳамдамов У. 30-йиллар ўзбек шеърятисида "соф лирика" муаммоси (Ойбек шеърятиси асосида). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1997; Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадий талқини: Филол.фан.номз...дисс.–Тошкент, 2001; Курбонбоев И.А. 90-йиллар ўзбек шеърятисида образлилик: Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2005; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: O'zbekiston, 2008; Тўлаков И. Чўлпон маҳорати. – Андижон, 1997; Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент, 2002; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент, 2006; Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, 2010; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърятиси бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2018; Oripova G. Mustaqillik davri o'zbek lirikasi: janr xususiyatlari va poetikasi: Filol.fan.d-ri...diss. – Farg'ona, 2024.

falsafiy, g‘oyaviy, mafkuraviy jihatlari poetikamizning yangicha metodologiyasi nuqtayi nazaridan aniqlandi, baholandi. Abdulla Oripov ijodining adabiyotimiz rivojidadagi o‘rni, she‘riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, hayotiy-biografik manbalari, shakliy-mazmuniy jihatlari, shoirning poetik mahorati masalalari bo‘yicha muayyan katta-kichik tadqiqotlar<sup>4</sup> va dissertatsiyalar<sup>5</sup> amalga oshirilgan. Biroq Abdulla Oripov vafotidan so‘ng chop etilgan yangi “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamidagi she‘rlarning ijodkor g‘oyaviy, badiiy-estetik tafakkur rivojidadagi o‘rni, tadrijiy takomilida davr ruhining aks etishi, ijodkor shaxs muammolari talqini masalasi o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetining 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq “O‘zbek adabiyoti va tanqidchiligining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Abdulla Oripov lirikasida davr, ijodkor shaxs muammolarini “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamidagi she‘rlar misolida aniqlash va shoir shaxsiyati, “men”ining o‘z ijodida namoyon bo‘lishi hamda badiiy-estetik tafakkurining takomillashuvi masalasini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Abdulla Oripovning shoir sifatida shakllanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan biografik va ijodiy omillar: shoir tarbiya topgan muhit, ijtimoiy davr va adabiy

<sup>4</sup> Шарафиддинов О. Талант халқ мулки. // Шарқ юлдузи. 1979; Инсон қалбининг манзаралари. // ЎзАС. 1981 й. 23 октябрь; Шеърят қалб ёлқини. // Ҳаёт билан ҳамнафас. – Тошкент, 1983. –Б.155-168; Қўшжонов М. Онажоним шеърят. –Тошкент: Ўқитувчи, 1994; Қўшжонов М., Мелиев С. Абдулла Орипов. – Тошкент: Маънавият, 2001; 2021. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. –Б.143-151; Ғаниев И., Афоқова Н. Озод рух фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2007; Жабборов И. Абдулла Орипов шеърятда тарихий шахс талқини. Илмий-адабий нашр. –Тошкент: Фан, 2008; Шодмонов Н. Шоир ижодининг олмос қирралари. // Ўзимники эрур шу созим. Илмий-амалий конференция материаллари. – Қарши: ҚарДУ нашриёти, 2011. – Б. 45-53; Кўчимов А. Мен шоирман, истасангиз шу... –Тошкент: Akademnashr, 2016; Ғаниев И. Афоқова Н. Абдулла Ориф фалсафаси. – Тошкент: Мухаррир, 2021; Эркаев А. Абдулла Орипов даҳоси. –Тошкент: Олтин нашр, 2021; Jo‘raqulov U. Abdulla Oripov she‘riyatida oila idilliyasi. // Abdulla Oripov fenomeni va o‘zbek she‘riyati taraqqiyoti. –Qarshi, 2021. –Б.46-50; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. –Тошкент: Адабиёт, 2021. – Б. 207-223; Ғаниев И. Афоқова Н. Абдулла Ориф фалсафаси. – Тошкент: Мухаррир, 2021.

<sup>5</sup> Афоқова Н.М. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар: Филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Тошкент, 1997; Раҳмонова М.С. Абдулла Орипов шеърятда бадий бутунлик: Филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Ашурова Г.Н. Абдулла Орипов шеърятда анъана ва бадий маҳорат (образ, ғоя ва тасвир): Филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2008; Жабборов И. Абдулла Орипов шеърятда тарихий шахс концепцияси ва лирик қаҳрамон масаласи. Филол.фан.номз...дисс. –Тошкент, 2008; Хамдамов А.Н. Абдулла Орипов шеърятда халқона поэтик тафаккур муаммоси: Филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2011; Каримов О. Абдулла Орипов шеърятда метафорик образлар тизими: Филол.фан.номз...дисс. –Тошкент, 2012; Райхонава М. Абдулла Орипов шеърятда оламни идрок этиш ва бадий воқелантириш тадрижи: Филол.фан.номз...дисс. –Тошкент, 2020; Ўсарова Л. Абдулла Орипов асарларида миллий рух ифодаси: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. –Тошкент, 2020; Равшанова Г. Абдулла Ориповнинг ҳажвнавислик маҳорати: Филол.фан.номз...дисс. –Тошкент, 2020; Давлатова А. Абдулла Орипов шеърятда поэтик тафаккур тадрижи: Филол.фан.док-ри...дисс. –Тошкент, 2022; Абдулҳакимова О. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2022; Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоэтик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2022; Худоёрова Г. Абдулла Орипов шеърятда лирик кечинма ва поэтик тасвир уйғунлиги (Хориж сафарларидаги асарлари мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. –Тошкент, 2022; Нарзиева М. Бадий қиёфа ва манзара яратишнинг адабий-поэтик тадқиқи (Абдулла Орипов шеърят мисолида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2022; Zaripov A. Abdulla Oripovning peyzaj lirikasi badiiyati: Filol.fan.b.fals. dok. ...diss. avtoref. –Toshkent., 2024. –58 б.

ta'sir kabi muammolarni yangi manbalar asosida ijodkor xotiralariga qiyosan yoritib berish;

“Shoirning tug‘ilishi” to‘plamiga kirgan she‘rlarni qiyosiy tahlil qilish asosida davr, zamon to‘lqinlarida vatanparvarlik, milliylik, adolat, ezgulik kabi umuminsoniy qadriyatlarning poetik talqinidagi o‘ziga xoslik, ijodkor shaxsi, badiiy-estetik tafakkurining takomillashuvini ochib berish;

haqiqat, adolat mavzulari badiiy talqinida ijodkor biografiyasi ta'siri va davr muammolariga shoir faol pozitsiyasi, ichki “men”i hamda poetik tafakkuridagi yuksalish, evrilish, falsafiy, adabiy-estetik qarashlarni inson, olam, tabiat tasvirida poetik g‘oya, hayot haqiqati uyg‘unligi asnosida aniqlash;

shoir she‘riyatidagi vatan ozodligi, yurt istiqboli g‘oyalari tasvirida o‘ziga xosliklarni aniqlash hamda badiiy tasviriy vosita, she‘riy ifoda usullari orqali ijodkor she‘riyati badiiyati, individual mahorat qirralarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Abdulla Oripovning “Shoirning tug‘ilishi” she‘riy to‘plami hamda ijodkor shaxsi va davr muammolari aks etgan asarlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Abdulla Oripov ijodida davr muammolarini shoir hayoti va ijodiga oid yangi manbalar asosida o‘rganish, she‘rlarida vatanparvarlik, milliylik, adolat, ezgulik kabi umuminsoniy qadriyatlarning poetik talqinidagi o‘ziga xoslik tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida biografik, tarixiy-qiyosiy, psixologik, analitik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Abdulla Oripovning shaxs sifatida shakllanishida biografik omillar: oila, onasi, otasi, akalari va oilada kitobga bo‘lgan muhabbat tufayli tashkil qilingan kutubxona, Bibi momo, Umur shoir degan baxshi hamda katta adabiy maktab asoschilari ta'siri hamda shoirning “O‘z haqimda bir og‘iz so‘z” va “Ko‘rgan – bilganlarim” nomi bilan yozib qoldirgan xotiralariga tayangan holda aniqlangan;

shoirning “Hayot falsafasi”, “Ateist”, “Tanqidchiga”, “Ko‘zi ochiq ketdi dunyodan”, “Chumolilar”, “Qismat” kabi she‘rlarida jamiyat, insoniyat uchun asrlar davomida dolzarb bo‘lgan, ijodkor shaxsiyatini junbushga keltirgan xudbinlik, manfaatparastlik, laganbardorlik, tamagirlik kabi davr muammolari badiiy-g‘oyaviy yetuk tasvirlanganligi ochib berilgan;

“Shoirning tug‘ilishi” to‘plamidagi she‘rlarda vatanparvarlik, milliylik, adolat, ezgulik singari umuminsoniy qadriyatlarni tasvirlashida shoirning butun poetik mahorati, xususan, bo‘yoqdor, mazmunan boy, ta’sirchan, jo‘shqin ifoda imkoniyatlari va badiiy-estetik tafakkurining takomillashuvi dalillangan;

“Shoirning tug‘ilishi” to‘plami dastavval “Mening kemam” deb nomlanganligi va birinchi betga “So‘zboshi o‘rnida” she‘ri kiritilishi haqida muallifning qo‘lyozmada yozib qoldirganligi, shuningdek, to‘plamda “Shoirning tug‘ilishi” deb nomlangan she‘r dastlab “Iqror” deb nomlanganligi, she‘rning matnida ham juda ko‘plab tuzatishlar qilinganligi, “Vatan” she‘ri soyaxatda “Uchqur xayol” deb, “Javob” she‘ri soyaxatida boshqa nom bilan berilganligi,

“Bu ham bir gapda...” she’ri qo‘lyozmada “Bu ham bir she’rda” deb nomlanganligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari asosida aniqlangan “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamidagi she’rlarda ijodkor shaxs va davr muammolarining aks etishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan biografik va ijodiy omillarning tavsifi zamonaviy adabiyotshunoslik aspektidagi o‘rganuvchilar uchun muhim manba bo‘la olishi asoslangan;

ijodkor poetik mahorati haqidagi xulosalar XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, hozirgi adabiy jarayon, istiqlol davri o‘zbek adabiyoti, adabiyot nazariyasi kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yangi manbalar bilan boyitishi dalillangan;

Abdulla Oripov lirikasida davr, ijodkor shaxs muammolarini “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamidagi she’rlar misolida aniqlash va shoir shaxsiyati, “men”ining o‘z ijodida namoyon bo‘lishi hamda badiiy-estetik tafakkurining takomillashuvi asosida to‘plangan materiallar adabiyotshunoslik ilmida tadqiqotlar yaratishda, lug‘atlar yaratishda material va manba vazifasini o‘tashi, monografiyalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq tarzda qo‘yilganligi, ilmiy-nazariy fikr va ma’lumotlarning birlamchi manbalardan olinganligi, biografik, psixobiografik, tarixiy-qiyosiy, psixologik, analitik va statistik tahlil usullaridan foydalanish natijasida aniq ilmiy xulosalar chiqarilganligi va ular vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Abdulla Oripov she’riyatini davr ruhi nuqtayi nazaridan biografik tekshirish va tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar, fikr-mulohazalar, nazariy qarashlar adabiy tanqidchilik, adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma’lumot va xulosalar berishi, ilmiy ishlar, tadqiqotlar olib borishda, mavjud darslik, qo‘llanmalarining takomillashuvida yordamchi manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shoir she’riyatining mavzu rang-barangligi va poetik obraz yaratishning turfa shakllarini tahlil etish orqali chiqarilgan umumlashma xulosalardan oliy o‘quv yurtlari, litseylar, ijod maktablaridagi dars mashg‘ulotlarida, maxsus kurs va seminarlarda, to‘garaklar faoliyatida, istiqlol mafkurasi asosida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, shuningdek, “Adabiyot nazariyasi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “O‘zbek adabiy tanqidchiligi”, “XX asr o‘zbek adabiyoti” fanlari bo‘yicha yangi avlod darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish, majmualar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Abdulla Oripovning shoir sifatida shakllanishida kuchli ta’sir ko‘rsatgan biografik va ijodiy omillar:

Abdulla Oripovning shaxs sifatida shakllanishida biografik omillar: oila, onasi, otasi, akalari va oilada kitobga bo‘lgan muhabbat tufayli tashkil qilingan kutubxona, Bibi momo, Umur shoir degan baxshi hamda katta adabiy maktab

asoschilari ta'siri shoirning "O'z haqimda bir og'iz so'z" va "Ko'rgan – bilganlarim" nomi bilan yozib qoldirgan xotiralarga tayangan holda aniqlangan xulosalaridan PZ-20170927147 "Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo'lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi" mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 20-yanvardagi № 04/1-186-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning yangi nazariy manbalar, ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

shoirning "*Hayot falsafasi*", "*Ateist*", "*Tanqidchiga*", "*Ko'zi ochiq ketdi dunyodan*", "*Chumolilar*", "*Qismat*" kabi she'rlarida jamiyat, insoniyat uchun asrlar davomida dolzarb bo'lgan, ijodkor shaxsiyatini junbishga keltirgan xudbinlik, manfaatparastlik, laganbardorlik, tamagirlik kabi davr muammolari badiiy-g'oyaviy yetuk tasvirlanganligi haqidagi fikr-mulohazalardan FA-F1-OO5-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2025-yil 28-yanvardagi № 36/1-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental loyiha doirasidagi maqolalar, monografiyalar hamda adabiyotshunoslik tadqiqi yuzasidan tadqiqotlarning ilmiy manbalar bilan boyitilishiga erishilgan;

"Shoirning tug'ilishi" to'plamidagi she'rlarda vatanparvarlik, milliylik, adolat, ezgulik singari umuminsoniy qadriyatlarni tasvirlashida shoirning butun poetik mahorati, xususan, bo'yoqdor, mazmunan boy, ta'sirchan, jo'shqin ifoda imkoniyatlari va badiiy-estetik tafakkurining takomillashuvi to'g'risidagi ma'lumotlardan PZ-20170927147 "Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo'lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi" mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 20-yanvardagi № 04/1-186-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha mavzusi doirasida nashr qilingan ishlarning ilmiy-nazariy manbalar bilan boyitilishiga erishilgan;

"Shoirning tug'ilishi" to'plami dastavval "*Mening kemam*" deb nomlanganligi va birinchi betga "*So'zboshi o'rnida*" she'ri kiritilishi haqida muallifning qo'lyozmada yozib qoldirganligi, shuningdek, to'plamda "*Shoirning tug'ilishi*" deb nomlangan she'r dastlab "*Iqror*" deb nomlanganligi, she'rning matnida ham juda ko'plab tuzatishlar qilinganligi, "*Vatan*" she'ri soyaxatda "*Uchqur xayol*" deb, "*Javob*" she'ri soyaxatida boshqa nom bilan berilganligi, "*Bu ham bir gapda...*" she'ri qo'lyozmada "*Bu ham bir she'rda*" deb nomlanganligi to'g'risidagi mulohazalardan FA-F1-OO5-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti 2025-yil 28-yanvardagi № 36/1-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental loyihaning amaliy qismining yangi ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 9 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 20 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnalda 5 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **“Abdulla Oripov ijodini o‘rganishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat. *“Ijodkor shaxs shakllanishida biografik omillar”* deb nomlangan birinchi faslda Abdulla Oripov shoir sifatida shakllanishidagi biografik omillar va adabiy manbalar tadqiqi masalasi o‘rganilgan. XX asr o‘zbek she’riyatida badiiy so‘zning betakror jilvalanishlari, lirik obraz poetik xususiyatlarining o‘ziga xosligi, yuksak estetik idealga ega shoirlar poetik tafakkuri betakrorligini kuzatish mumkin. Ushbu jarayonda *“O‘zbekiston Qahramoni”*, xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripov ijodi juda muhim bir halqani tashkil etadi. Zero, shoir ijodida davr she’riyatida kuzatilgan asosiy tamoyillar o‘z aksini topgan, ya’ni original badiiy asarlari o‘ziga xos poetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu o‘rinda aytish joizki, *“Shoir Abdulla Orif hozirgi o‘zbek she’riyati taraqqiyotining yo‘nalishini tayin etgan, ammo hanuz ijodining mohiyati yetarlicha tadqiq etilmagan iste’dod egalaridandir”*<sup>6</sup> degan adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev qarashlarining o‘zi ham ushbu mavzuni tadqiq etish dolzarbligini belgilaydi.

Ma’lumki, so‘nggi yillar Abdulla Oripov hayoti va ijodi haqida muhim ma’lumotlar, manbalar aniqlandi. Jumladan, uning oila a’zolari – turmush o‘rtog‘i Hanifa Mustafoyeva va qizlari Ruxsora Oripovalar tomonidan adibning vafotidan so‘ng chop etilgan *“Shoirning tug‘ilishi”* (2021) she’riy to‘plami mana shu kabi manfaatli ishlar mevasidir. Zero, *“Ijodkor shaxsiga yondashuvda bir qancha faktorlar: yozuvchining tarjimai holi, nasliy xususiyatlari, individualligi, iste’dodi, uslubi, adabiy muhit kabi faktorlar birlamchi omil”*<sup>7</sup> hisoblanib, Abdulla Oripov tarjimai holi, uning asarlarining qo‘lyozma variantlarini o‘rganish, shoir ijodiy takomilini ko‘rsatish shu jihatdan muhim vosita hisoblanadi. Binobarin, *“... har qanday ijod namunasini muallif shaxsiyati bilan birgalikda o‘rganish*

<sup>6</sup> Ўўлдосшев К. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 234.

<sup>7</sup>To‘laganova S. Ijodkor shaxsiyati va badiiy qahramon muammosi (Abdulla Qodiriy ijodi misolida): Filol. fan.nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – B.19.

lozim<sup>8</sup>ligini hisobga olgan holda, shoir hayotiga nazar tashlaymiz. Bo‘lg‘usi ijodkorning onasi e’tiqodi juda mustahkam, farzandlari tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashadigan ma’rifatli ayol bo‘lib, bu haqida shoirning o‘zi keyinchalik bolalik xotiralarida: *“Onam 8 nafar bolaning tarbiyachisi, tag‘in oilaga qabul qilingan 2 yetim birga o‘sdik. Uyimizda yaxshigina kutubxonamiz mavjud edi. Na radio, na televizor bor bir paytda men o‘sha kutubxonadan chinakamiga foydalanganman”*<sup>9</sup>, degan o‘z e’tirofi to‘liq tasdiqlaydi. Tabiiyki, bo‘lg‘usi shoir, oliy o‘quv yurtlarining til-adabiyot fakultetlarida tahsil olgan akalaridan she’r va hikoyalarni ko‘p tinglagan. Shuningdek, yosh Abdullaga onasi va mahalladosh qo‘shnisi Bibi momoning ham yaxshigina ta’siri bo‘lgan: *“Akalarim Buxoro, Toshkent oliy o‘quv yurtlarida til-adabiyot fakultetlarida o‘qishardi. Tabiiyki, ular ko‘tarib yurgan kitoblarning aksariyati badiiy adabiyot namunalari edi. Mening allaqachon savodim chiqqan, kitoblarni sharillatib o‘qiy olardim. Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy bobomiz-u Pushkindan tarjimalar, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon she’riyati va yana ko‘p roman-u qissalar bo‘lardi. Bibi momo o‘ta darajada savodxon buvi edilar. Onam rahmatlikka ergashib, ularning suhbatiga qatnashib qolardim. Bibi momoning kattaligi sandaldek keladigan kitobi bor edi. Kitobni Navoiy-kitob derdilar. Bibi momo Farhod-u Shirin, Layli-yu Majnunlarni chunonam qiroat bilan o‘qirdi”*<sup>10</sup>. Shoirning o‘zi qoldirgan ma’lumotlardan ayonki, unga adabiyot, she’riyat, badiiy ijod uchquni, avvalo, akalari, oiladagi kitobga bo‘lgan muhabbat tufayli tashkil qilingan kutubxona, onasi va u orqali Bibi momodan o‘tgan bo‘lsa, e’tiborimizni shoir xotiralaridagi *“qish kunlarida to‘ylarga qo‘shni tumanlardan nomdor baxshilar kelib, tong otguncha doston aytishardi. Biz bolalar baxshini tinglay-tinglay bir-birimizga biqinishib uxlab qolar edik. Yanglishmasam, o‘shanda Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko‘p eshitganman”*<sup>11</sup>, degan so‘zlari shoirga *“Ijodiy jarayon, aslida, bolalik chog‘idanoq bo‘y ko‘rsatadi”*<sup>12</sup> deyishimiz uchun asos bo‘ladi. Adabiyot maydoniga o‘z so‘zi, ovozi bilan kirib kelgan o‘spirin shoirning dastlabki she’rlari haqida ustoz tanqidchi Ozod Sharafiddinov katta umid va ishonch bilan shunday yozadi: *“Abdulla inson qalbining qarama-qarshiliklarini, hislar to‘qnashuvini, tuyg‘ular quyunini juda haqqoniy va juda samimiy ifodalay oladi. Bu uning she’rlariga takrorlanmas dramatik ruh beradi. Abdullaning she’rlari izlanayotgan, o‘ylayotgan, qiynalayotgan qalbning badiiy ifodasidir”*<sup>13</sup>. Bunday e’tirofga yoki bir so‘z bilan aytganda, ijodda katta yutuqqa erishish uchun faqat oila, iqtidor, e’tidodning o‘zi kamlik qiladi, albatta, bu yo‘lda ustozlar sabog‘i, ko‘magi,

<sup>8</sup> Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. – Москва: Художественная литература, 1970. – С.6.

<sup>9</sup> Орипов А. Ўз ҳақимда бир оғиз сўз. // Эҳтиёж фарзанди. Адабий мақолалар. – Тошкент, 1988. – В.5.

<sup>10</sup> Орипов А. Ко‘рган – билганларим. // Танlangan asarlar. 1-jild. –Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – В.7.

<sup>11</sup> Орипов А. Ко‘рган – билганларим. // Танlangan asarlar. 1-jild. –Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – В.7.

<sup>12</sup>To‘laganova S. “Ijodkor shaxsiyati va badiiy qahramon muammosi” (Abdulla Qodiriy ijodi misolida): Filol.fan.nomz... diss. – Toshkent. 2019. – В.19.

<sup>13</sup> Sharafiddinov O. Yillar va yo‘llar. // Adabiyotimizning yarim asri. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomli Adabiyot va san‘at, 1967. –240 b.

rag‘batlantirishi lozim bo‘ladi. *“Fakultetimizda, – deya xotiralaydi shoir, – adabiy to‘g‘arak muttasil faoliyat ko‘rsatadi. Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov kabi ustozlar biz bilan soatlab mashg‘ulot olib borardilar...Yozuvchilar uyushmasi mushoiralaridan birida “Munajatni tinglab”, “Burgut” degan she‘rlarimni o‘qidim, o‘sha kuni Abdulla Qahhor nazariga tushdim. Mirtemir domla atrofida ko‘p shogirdlar qatori saboq oldim. Shayxzodadek domla, donishmand ustozga ergashib”*<sup>14</sup> katta adabiy maktab ko‘rgan Abdulla Oripovga she‘riyat pog‘onasida yuksalishi uchun bu bir omil bo‘lgan deyish mumkin.

Bobning *“Abdulla Oripov shaxsi va ijodining yaxlitligi”* deb nomlangan ikkinchi faslida ijodkor shaxsi va uning ijodiyoti bir butun tizim sifatida tahliliy yondashuv negizida muayyan darajada tadqiq qilingan. Shunday muammolarni o‘rgangan asarlardan biri sifatida adabiyotshunos A.Rasulovning *“Tanqid, talqin, baholash”* nomli kitobini keltirish mumkin. Jumladan, asarda munaqqid Javod Hay‘atning psixologik tanqidida san‘atkor shaxsiyati bilan asarlari orasida uzviy bog‘liqlik bo‘lishi haqidagi fikrini keltiradi: 1) asarni oydinlashtirmoq uchun san‘atkor hayoti va shaxsiyatini tadqiq etmoq; 2) san‘atkor psixologiyasi va shaxsiyatini oydinlashtirish maqsadida asarlarini misol qilib keltirmoq lozimligini uqtiradi<sup>15</sup>, – deydi. Demak, ijodkorning barkamol shakllanishida bolaligi, uning qay tarzda hayot kechirgani muhim bo‘lib, unga umr bo‘yi shu shirin yoki achchiq xotiralar hamroh bo‘lishi, hattoki ayrim asarlari uchun mavzu berishi bilan ijodiy merosini mazmunan salmoqli, shaklan rang-barangligini ta‘minlagan omil hisoblanadi. Ma‘lumki, barcha kashfiyotlar inson idroki, tafakkuri orqali yaratiladi, tafakkur, idroki orqali inson dunyoni, o‘zligini, hayotiy pozitsiyasini anglaydi. Anglash tuyg‘usi esa insonni o‘z ichki “men”ini, shaxsiyatini topishga, shaxs sifatida shakllanib, hayot so‘qmoqlarida mustaqil yo‘lini belgilab olishda yordam beradi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, Abdulla Oripov she‘rlari *“haqiqiy iste‘dod egasining ko‘ngli, tafakkuri va tasavvuri hosilasidir”*<sup>16</sup>.

*“Shoirning tug‘ilishi”* to‘plamidagi she‘rlar va ularning mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda yaratilish jarayonlari shu tamoyilga asosan yaratilgan bo‘lib, ushbu kulliyotning nodirligi va eng qimmatli jihati, undagi 200 dan ortiq she‘rlar matni Abdulla Oripovdek buyuk ijodkorning o‘z dastxatlari va tahrir-tuzatishlari bilan asliyatdagidek nashr qilinganligidadir. Ushbu to‘plamdagi she‘rlar 235 ta bo‘lib, ular *“...muallifning, asosan, 1957-1965-yillar oralig‘idagi ilk ijod namunalaridir. Kitobning nomini ham Abdulla Oripovning o‘zlari qo‘ygan”*<sup>17</sup>. To‘plamdan o‘rin olgan she‘rlar 16-24 yoshli o‘spirin ijodkorning nabotot, insoniyat, tabiat va o‘lmas umrboqiy ishq haqidagi jo‘shqin, qaynoq bitiklari yoki ruhiy holatlari aks ettirilgan sodda va jonli go‘zal tasvir namunasi. *“Sevging aso bo‘ldi”, “Ishqing menga”, “Sevgi”* kabi she‘rlarida umrboqiy ishq kuylangan

<sup>14</sup> Oripov A. Ko‘rgan – bilganlarim. // Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – B.9.

<sup>15</sup> Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Toshkent: Fan, 2006. – B.77.

<sup>16</sup>Карим Б. Абдулла Орипов шеърлари тўғрисида айрим мулоҳазалар. // “Абдулла Орипов ижодининг илмий-маърифий аҳамияти” мавзuidaги Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. –Тoшкент, 2020. –Б.3

<sup>17</sup> Саййид С. Сандикдан чиққан калдирғочлар. // Шоирнинг туғилиши. –Тoшкент.: Адабиёт, 2021. –Б.4

bo'lsa, *"Hijron azoblari"*, *"Orom o'g'risi"*, *"Aldangan oshiq"*, *"Bevafoga"* singari bitiklarda muhabbat sabab aynan mana shu yoshda o'spirin yoshlar duch keladigan dardli, lekin totli, shirin ishqning azoblari jonli bo'yoqlarda tasvirlangan. Ushbu she'rlarning biografik, psixobiografik, tarixiy-qiyosiy, psixologik, analitik va statistik tahlil usullarda o'rganilishi Abdulla Oripovdek ijodkor shaxsi badiiy-estetik tafakkurining takomillashuvi, poetik mahorati va ijodiy evolyutsiyasining tadrijiy kamolotini ko'rsatadi. To'plamning umumiy mazmun-mundarijasini to'liq tasavvur etish uchun va undagi she'rlarni kengroq o'rganish maqsadida ularning mavzusi, g'oyaviy-badiiy va kompozitsion-shakliy jihatlariga ko'ra bir necha guruhlariga (albatta, shartli ravishda) ajratishni muvofiq ko'rdik: Mazkur guruhdagi she'r va tarjimalar jami 235 ta bo'lib, shundan ijodkor qalamiga mansub vatan mavzusidagi she'rlari 11 ta; davr voqealari va muammolari aks etgan she'rlari 40 ta; milliylik va baynalmilallik g'oyalari aks ettirilgan she'rlari 9 ta; sevgi-muhabbat mavzusidagi she'rlari 27 ta; tabiat va inson munosabatlari tasvirlangan she'rlari 80 ta; milliylik va baynalmilallik g'oyalari aks ettirilgan she'rlari 9 ta; biografik xarakterdagi she'rlari 18 ta; shoirning ijodiy kredosi va adabiy-estetik qarashlari aks etgan she'rlari 28 ta; shoirning tarjimalari 4 ta; shoirning ruhlantiruvchi, ilhomlantiruvchi she'rlari 4 ta; fasllar tasviriga bag'ishlangan she'rlari 8 ta, hajviy she'rlari 1 ta; g'azal 2 ta (*"Yig'lar"* g'azali vazni: hazaji musammani solim; *"Mehnating ila saodating"* vazni: ramali musammani mahzuf); masnaviy 1 ta; lirik poema 1 ta.

To'plamdagi she'rlar, asosan, sodda, barmoq vaznda yozilgan bo'lib, eng ko'p foydalangan turoqlanish 9 bo'g'inli, 4+5 (102 ta) va 11 bo'g'inli, 6+5 (96 ta), 14 bo'g'inli, 7+7 (10 ta) bo'lib qolgan: 7 bo'g'inli (4+3), 13 bo'g'inli (4+9), 13 bo'g'inli (8+5), 12 bo'g'inli (7+5), 15 bo'g'inli (8+7) 2 tadan, 13 bo'g'inli (7+6), 10 bo'g'inli (5+5) 1 tadan. Endi to'plamdagi qo'shma vaznda yozilgan she'rlarga kelsak: 11 bo'g'inli, 6+5 (9 ta), 9 bo'g'inli, 4+5 (6 ta), 8 bo'g'inli, 4+4 (3 ta), 10 bo'g'inli, 5+5 (2 ta) bo'lib, 10 bo'g'inli, (3+4+3), 10 bo'g'inli, (4+6), 10 bo'g'inli (6+4), 7 bo'g'inli, (4+3), 12 bo'g'inli, (6+6), 9 bo'g'inli, (6+3), 9 bo'g'inli, (3+3+3), 6 bo'g'inli, (3+3), 13 bo'g'inli, (8+5), 15 bo'g'inli (8+7) va lirik poema 1 tadan jami 31 tadir.

To'plamdagi she'rlarning yana alohida e'tiborga molik bir jihati, barmoq vaznda yozilgan misralar soni toq misralarda yozilganlida ko'rinadi. Jumladan, 9 misrali (*"Tanga mador"*, *"Sevging aso bo'ldi..."*, *"Tog'lar o'xshar inson qalbiga..."*), 21 misrali (*"Xanjar"*, *"To'lqinlar"*, *"Yigirma bir yosh"*), 13 misrali (*"Muqaddas sarhadlar"*, *"Suvrat"*, *"Kechir meni barisi uchun..."*) 3 tadan; 25 misrali (*"Yurt sevgisi"*, *"Ona qishloq"*), 27 misrali (*"Aldangan oshiq"*, *"Tol"*) 2 tadan; 33 misrali (*"Qishloq"*), 41 misrali (*"Men yomon ko'raman"*), 15 misrali (*"Ko'zi ochiq ketdi dunyodan"*), 17 misrali (*"Tundagi she'r"*), 67 misrali (*"Hayot falsafasi"*), 23 misrali (*"Poxol g'aramlar"*), 25 misrali (*"Garmon"*), 35 misrali (*"Shlagbaum"*), 43 misrali (*"Ko'chamizdan o'tdi otiqlar..."*), 7 misrali (*"Bilaman, sevganing men emas"*), 35 misrali (*"Sas"*), 31 misrali (*"Eslaymiz, eslaymiz..."*), 29 misrali (*"Ikki iz"*), jami 26 ta toq misrali she'rlar hisoblanadi.

Dissertatsiyaning “**Shoirning tug‘ilishi” to‘plamidagi she’rlarda davr ruhi va lirik qahramon**” deb nomlangan ikkinchi bobida ijodkor “men”i hamda iste’dodining ulg‘ayishi, ijodiy takomili kabi masalalar tahlil etilgan. Bobning “*Ijodkor “men”i va lirik qahramon*” deb nomlangan birinchi faslida so‘z – shoir qiyofasi va “men”ligi, so‘z – shoir badiiy g‘oyasini ifoda etadigan mo‘jizaviy vosita ekanligi tadqiq qilingan. Abdulla Oripov lirik qahramonining ruhoniya-ti jamiyatdagi turli jtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalarga, ya’ni davr, insoniyat uchun muhim bo‘lgan muammolarga befarq qarab tura olmaydi, bu kabi bitiklarda adibning “*insoniy meni*” va “*ijodiy meni*” birlashgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, “*Hayot falsafasi*”, “*Ateist*”, “*Tanqidchiga*”, “*Ko‘zi ochiq ketdi dunyodan*”, “*Chumolilar*”, “*Qismat*” kabi jamiyat, insoniyat uchun asrlar davomida dolzarb bo‘lgan, ijodkor shaxsiyatini junbishga keltirgan davr muammolari qalamga olinadi va insoniyat ogohlikka da’vat etiladi. Olamda ma’naviy taraqqiyotga to‘g‘anoq bo‘lishdek og‘ir jinoyat ijodkor “men”i, ya’ni qalbiga nayzadek sanchiladi. Ko‘z bilan, qalblar bilan anglash mumkin bo‘lgan bunday fojealardan insoniyatni ogoh etish, bunday tanazzulni keltirib chiqarayotganlarning qiyofalarini ko‘rsatish Abdulla Oripov lirik “men”ining niyatiga aylangan. Xudbinlik, manfaatparastlik inson ma’naviyatiga tushgan zang. Zang esa yemiruvchandir. Xususan, shoirning “*Hayot falsafasi*” she’rida ham xuddi shunday dolzarb mavzu ko‘tarilgan:

*Kattaning oldida topsa bahona,  
Shaxsiy sadoqatin ayladi zohir.  
Birda sovg‘a berdi, birda – to‘yona,  
Nobakorning dilin ovladi oxir.  
O‘lkada intizom susaygan zamon,  
Omad kulib boqdi uning baxtiga:  
Tamagir qo‘l bilan qo‘g‘irchoqsimon,  
Qo‘ndirib qo‘yildi mansab taxtiga!<sup>18</sup>.*

Shoir she’rlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda “lirik “men”ning individual mulohazalari ifodalangan”<sup>19</sup>ligini hisobga olsak, shoirning lirik she’rlarida bu holatning mukammal namunasini ko‘rish mumkin. Binobarin, olamda ma’naviy taraqqiyotga to‘g‘anoq bo‘lishdek og‘ir jinoyat ijodkor “men”i, ya’ni qalbiga nayzadek sanchiladi. Ko‘z bilan, qalblar bilan anglash mumkin bo‘lgan bunday fojealardan insoniyatni ogoh etish, bunday tanazzulni keltirib chiqarayotganlarning qiyofalarini ko‘rsatish Abdulla Oripov lirik “men”ining niyatiga aylangan. Shoir she’rlaridagi ijodkor shaxsiyati kamalakning ranglari kabi turfa xildir. Jumladan, vatan haqidagi “*Vatan*”, “*Yurt sevgisi*”, “*Maftuningman*”, “*Ona tuproq*” she’rlarida vatan uchun fidoiy farzand bo‘lib, uning bor go‘zalliklaridan ilhomlanadi, zavqlanadi, maftun bo‘ladi, “*Nozli yor*”, “*Bilaman sevganing men emas*”, “*Qo‘zg‘ama qalbimda nelar borligin*”, “*Aldangan oshiq*” she’rlarida muhabbat dardiga mubtalo bo‘lgan va iztirob chekayotgan shaxs ichki

<sup>18</sup> Орипов А. Шоирнинг туғилиши. – Тошкент: Адабиёт, 2021. –Б.330 (Keyingi o‘rinlarda ushbu to‘plamdan olingan iqtiboslar sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi).

<sup>19</sup> Oripova G. Mustaqillik davri o‘zbek lirikasi: Filol.fan.d-ri...diss. – Farg‘ona, 2024. – Б. 105.

kechinmalari aks ettiriladi, “*Kuz she’ri*”, “*Ko’klam*”, “*Bahor*” kabi she’rlarida esa fasl tarovati, go’zalliklari va bu fasllarning o’zigagina xos xislatlari sabab ijodkor shaxsiyatida sodir bo’lgan ruhiy holatlar, nozik kechinmlar rangli bo’yoqlarda tasvirlangan.

Bobning “*Shoir iste’dodi ulg’ayishi va ijodiy takomili*” deb nomlangan ikkinchi faslida Abdulla Oripovning turli mavzularda bitgan va inson ruhiyatining ko’zgusi bo’la olgan she’riyati tadqiq etilgan. She’riyatda falsafiylik, xalq donishmandligi, hayot falsafasi dialektikasi, insonlar fikri va ruhiyatini she’rga joylay olish ijodkor qobiliyati poydevoridir. Xalqning fikri hamisha dono, purma’no, chunki hayot chig’iriqlaridan o’tgan, amaliyotda sinalgan, boshdan kechirilgan hayotiy tajriba va sinovlarning mahsuli hisoblanadi. Bular Abdulla Oripov ijodida ham asosiy o’rinni egallaydi. Shoirning she’riyati xalqchilligi, ta’sirchanligi, yuqumliligining siri ham ana shundadir. Uning dastlabki she’rlaridanoq shoir ovozli adabiyot pahlavoni ijod maydoniga kirib kelganligini va buyuk ijodkorlar Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Ozod Sharaffidinovlar nazariga tushganligi, ijod pillapoyalaridan o’ktam va dadil qadamlar bilan ko’tarilganligi, qolaversa, faqat va faqat xalqning dardini, davr muammolarini qalban his qilib, shoirona tafakkur va falsafiy dunyoqarash bilan tasvirlash shoirning bosh tamoyili edi. Shoirning 1957-1965-yillar lirikasida jahoniy pok orzu-umidlar qilayotgan, odamlarning qayg’u va shodliklariga sherik lirik qahramoni ham shu qadar samimiy edi. Uning falsafiy she’riyatida doimo inson ruhiyati va faoliyati manzaralari o’z aksini topdi. Chunki “Tabiat qanchalik go’zal bo’lmasin, har holda u san’atda ikkinchi darajali hisoblanadi. San’atning bosh predmeti inson bo’lishi kerak”<sup>20</sup> degan qarash ijodkor she’riyatining bosh mavzusiga aylangan. Shoirning lirik-falsafiy mavzudagi she’rlarida hayot haqiqatlari, olam tashvishlari, davr muammolari butun boricha aks ettirilar ekan, bu ziddiyatlarga, nohaqliklarga qarshi qalb isyoni, ijodkor shaxsiyati qalb kechinmalari tasviri bosh mavzuda namoyon bo’ladi. Abdulla Oripov ijodkor shaxsi nihoyatda ziyrak, diqqat-e’tiborli, hayotdagi davr muammolariga tiyanlik bilan nazar tashlab, unga shaxsiy munosabatini bildiradi, har doim davr bilan hamnafas va davr bilan barobar qadam tashlaydi. Ijodkor “*Shoirning tug’ilishi*” to’plamini shu qoidaga amal qilib yaratdi. To’plamdagi she’rlarda sevgi-muhabbat, ona qishloq, bolalik haqidagi mavzular yetakchilik qilsa-da, biroq oddiy va jo’n tuyilgan tabiat hodisasi va inson vaziyati qiyosi orqali chuqur, teran hayotiy ma’no va saboq berilganday, nazarimizda. “*Tol tagida*” she’ri mana shunday ohanglarni yodga soladi:

*Bolalik kechgandi buncha pildirab,*

*Loy o’ynab issig’i, soyasida ham.*

*Zilol suv oqqanda chopib, shildirab,*

*O’ylardim: Men axir, qaysi suvdan kam!?(38-bet).*

Mana ijodkor qalbida notinchlikni vujudga keltiradigan holat qanday qalamga olinmoqda. Lirik qahramon o’z vaziyatidan kelib chiqib, o’ziga savol bilan

---

<sup>20</sup> Фром Эрих. Психоанализ и этика. – Москва, 1993. – С.151.

murojaat qiladi va natijada shoir kitobxon e'tiborini mushohadaga, tahlilga chorlaydi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab aytish mumkin, shoirning ushbu she'ri hayotiy hodisa, haqiqatlarning ko'chirmasi, quruq nasihat, shoir va chaqiriqlarning ifodasi emasligi she'r davomida ayon bo'ladi:

*Shu tolning tagida she'rning muxlisi,  
Ilk daf'a qo'liga olganda qalam.  
Esimda, she'rimni uyalib hatto,  
Tovushim chiqarib o'qimadim ham.  
Yillar o'tdi uchqur... Keksaydi tol ham,  
Yoshlik qarab qoldi, kelmas izimdan.  
Boshim uzra sokin barglar shivirlab,  
Yoz, yoz degan kabi... chiqmas esimdan (38-bet).*

Lirik qahramon o'zini quvontirgan yoki ranjitgan turtki yoki hayotiy saboqlarni o'zligida, qalbida his etib, hayajonga tushgan, iztirobga solgan va kitobxonni hamdam, ogoh qilgisi kelgandagina qo'liga qalam oladi. O'z fikr tuyg'ulariga jilo beradi, hissiyotlari mahsuli bilan o'quvchini sherik qilib, ruhiyat olamining sirli va ajib manzillari tomon yetaklaydi. She'riyat muxlislari yaxshi bilishadiki, ijodkor "o'zini yoqmaguncha o'zini tushuntirmaydi. Shoir o'zini yoqqan she'r yoki satr bilan shoir bo'ladi. Shoir o'zini yoqqan she'r ham, satr ham hech qachon o'lmaydi. Uning haroratidan umidsizlarga umid yetadi, chorasizlarga chora" bo'lishligi she'r yakunida o'z aksini topadi. Shuningdek, she'r yakunida chiqariladigan poetik xulosalar kitobxonni befarq qoldirmaydi, fikrlashga, mavjud, ammo e'tibor berilmagan voqea-hodisalar haqida jiddiyroq mulohaza yuritishga, o'ylab ko'rishga undaydi. Abdulla Oripov o'z ijodida tabiat va ruhiyat uyg'unligining xilma-xil shakllaridan mohirlik bilan foydalandi. Bu hol she'r shaklining rang-barang bo'lishi bilan birga, ruhiyat qirralarining ham turli hissiy bo'yoqlarda aks etishiga, bir-birini takrorlamaydigan kechinmalar shaklida namoyon bo'lishiga olib keldi. Abdulla Oripovning to'plamiga kiritilgan tarjimalar ham shoirning badiiy mahorati, iste'dodi ulg'ayib, ijodiy takomilga erishganligini ko'rsatadi.

